

Bolalar psixologiyasida aggressivlik

Kudratova Muxayyo Olimovna

S1-PP-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar psixologiyasida uchraydigan aggressivlik holatlari, ularning kelib chiqish sabablari, aggressiv xatti-harakatlar yoshga, tarbiyaga, oilaviy muhitga va atrof-muhitdagi ta'sirlarga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Tadqiqotda bolalardagi aggressivlik turlari (jismoniy, og'zaki, passiv) va ularni kamaytirish usullari, shuningdek, pedagog va ota-onalarning bu boradagi roli ko'rib chiqiladi. Maqsad – bolalar aggressivligini erta aniqlash, unga sabab bo'layotgan omillarni tushunish hamda ijobiy psixologik yondashuvlar orqali bartaraf etish yo'llarini taklif qilishdan iborat. Ushbu ish maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bolalar psixologiyasi, aggressivlik, xulq-atvor, psixologik rivojlanish, jismoniy agressiya, og'zaki agressiya, passiv agressiya, ijtimoiy muhit, tarbiya, stress, emotsiyalnaya nazarat, oila, konflikt, pedagogik yondashuv, profilaktika.

Аннотация: В статье рассматриваются случаи агрессии в детской психологии, их причины, а также то, как агрессивное поведение может проявляться по-разному в зависимости от возраста, воспитания, семейной обстановки и влияния окружающей среды. В исследовании рассматриваются виды агрессии у детей (физическая, вербальная, пассивная) и методы их снижения, а также роль педагогов и родителей в этом вопросе. Цель — выявить агрессию у детей на ранних стадиях, понять факторы, ее вызывающие, и предложить способы ее устранения с помощью позитивных психологических подходов. Данная работа имеет практическое

значение для специалистов, работающих с детьми дошкольного и школьного возраста, и служит эффективной организации образовательного процесса.

Ключевые слова: детская психология, агрессия, поведение, психологическое развитие, физическая агрессия, верbalная агрессия, пассивная агрессия, социальная среда, воспитание, стресс, эмоциональный контроль, семья, конфликт, педагогический подход, профилактика.

Abstract: This article discusses the cases of aggression in child psychology, their causes, aggressive behavior can manifest itself differently depending on age, upbringing, family environment and environmental influences. The study examines the types of aggression in children (physical, verbal, passive) and methods for reducing them, as well as the role of educators and parents in this regard. The goal is to identify children's aggression early, understand the factors that cause it, and suggest ways to eliminate it through positive psychological approaches. This work is of practical importance for specialists working with preschool and school-age children and serves to effectively organize the educational process.

Keywords: child psychology, aggression, behavior, psychological development, physical aggression, verbal aggression, passive aggression, social environment, upbringing, stress, emotional control, family, conflict, pedagogical approach, prevention.

Kirish.

XXI asrga kelib aggressivlik muommosi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Insondagi aggressivlik har qanday vaziyat va sababdan kelib chiqishi mukin. Muammolar, qattiq stressga tushish, charchoq va hokazo.... Bu masala yuzasidan faqatgina kattalar emas, balki bolalar ham aziyat chekishmoqda. Sababi maktabgacha ta'limga boradigan bolalarda ham aynan aggressivlik yuzaga chiqmoqda. Bu masala yuzasidan esa maktabgacha ta'limga tashkilotlarida psixologlar alohida shug'ullanishadi.

Biroq bu vaziyat yaxshilandi degani emas. Negaki farzand kunining yarmini mактабгача та’лим ташкиторида о’тказиши мүкин, undan ko’п vaqtı esa albatta uylarida bo’lishadi. Oiladagi vaziyat hammada turlicha demak bola agrev bo’lib qoldimi buning sababi asosan oilada deb ta’kidlanadi. Agressivlik bolalarning o’tish davriga ham ta’sir etmay qolmaydi. Bola chaqaloqlikdan kichik yoshga o’tishi va o’rta yoshdan katta yoshlilar safiga qo’shilar ekan. Bu o’tish davrida bolalarda turli xil krizislar bo’lishi mumkin. Bu ham bolaning psixologik somatsenkasiغا узвиҳи та’sir etadi. Hozirgi kunda amalga oshirayotgan chora-tadbirlar tarkibida maktabagcha yoshdagi bolalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy ko’nikmalarni shakllantirishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Bola ruhiyati – bu inson psixikasining eng nozik va muhim bosqichlaridan biri bo’lib, u shaxsning keyingi hayotdagi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bolalar psixologiyasida uchraydigan muhim muammolardan biri bu — agressivlikdir. Agressivlik bolalarning xatti-harakatlarda turli shakllarda namoyon bo’lishi mumkin: jismoniy zo’ravonlik, og’zaki tahdid, norozilik, g’azab yoki passiv tajovuz shaklida. Ushbu holatlar nafaqat bolaning o’ziga, balki uning yaqin atrofidagi insonlarga — tengdoshlariga, ota-onasiga, o’qituvchilariga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Bugungi kunda bolalar orasida agressiv xatti-harakatlarning kuchayib borayotgani, bu esa psixologlar, pedagoglar va ota-onalarni jiddiy tashvishga solayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Agressivlikning ildizlari ko’pincha oilaviy muhit, noto‘g’ri tarbiya, stressli holatlar yoki ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siriga borib taqaladi. Bu holatlarni chuqur o’rganish, ularning oldini olish va ularni ijobiy yo’l bilan bartaraf etish bolalar psixologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur ishda bolalarda agressivlikning sabablari, ko’rinishlari, unga olib keluvchi omillar va uni kamaytirish yo’llari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida agressiv xatti-harakatlarga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqishga harakat qilinadi.

Agressiv xulq atvor sababli bolalar orasida jinoyatchilik ishlari oshgan. Maktab yoshidagi bolalar davrini o‘rganuvchi ko‘pchilik olimlar agressiya, emotsiyal qo‘zg‘alishni, jahl chiqqan holatlarda balog‘atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo‘lishiga ko‘proq e‘tibor qaratganlar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo‘lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo‘lishga intiladilar. Ilmiy adabiyotlarda “agressiya”ga (lotin.agressio-hujum) “yo‘naltirilgan salbiy xulq- atvor ijtimoiy muhitdagi qoidalar , normal amal qilmaslik, insonlarga ruhiy jismoniy zarar yetkazish” deya ta’rif beriladi. Bolalarda agressiya quidagicha namoyon bo‘ladi:

- So‘rov va ko‘rsatmalarni bajarishdan bosh tortadi, qoidalarni biladi, lekin ularga rioya qilishni xoqlamaydi;
- Narsalarni buzishni yaxshi ko‘radi, masalan, o‘yinchoqlarni buzish va yo‘q qilishdan zavqlanadi;
- Doimiy ravishda tengdoshlari va kattalar bilan tortishuvda bo‘ladi;
- U o‘z atrofdagilarga salbiy reaksiyani: g‘azab, g‘azabni qastdan qo‘zg‘atishga urinish;
- U ko‘pincha o‘zini tutib turmaydi, o‘zini boshqarishni bilamaydi va harakat ham qilmaydi.

Agressivlikning nisbiy shakli va negativlikda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi hamda ularda norozilik, jismoniy agressivlik va asabiylashish shakllari ham sezilarli darajada bo‘ladi. Aytish mumkinki, bolalarda o‘z o‘zini hurmat qilish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, undagi umumiy agressivlik va uning tarkibiy qismlari ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu munosabat agressivlikning instrumenta shakliga ham, agressivlikning boshqa dushmanlik shakliga ham birdek xosdir. Agressiv reaktsiyalarining namoyon bo‘lish kuchida ham gender farqlari mavjud.

O‘g‘il bolalar jismoniy tajovuz reaktsiyalarining ustunligi bilan ajralib turadi, yoshi kattaroq qizlar esa tajovuzni ifodalashning bilvosita usullariga ko‘proq murojaat qilishadi: og‘zaki, bilvosita va negativizm. Ehtimol, bu o‘g‘il bolalarning tajovuzkorligi “tashqi tomonga”, qizlar esa “ichkariga” qaratilganligi bilan bog’liqdir. I.A.Furmanov bolalar

agressivlilagini tushuntirishning turliuslubiy va kontseptual yondashuvlari, bolaning xatti-harakatlarida tajovuzning paydo bo'lishini rag'batlantiruvchi yoki qo'zg'atuvchi psixologik va ijtimoiy omillar, uni psixodiagnostikalashning bevosita va yordamchi usullari, shuningdek, psixo-ijtimoiy korrektsiya yo'nalishlarini aniq ohib bergan. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'rtasidagi konfliktlar narsalar va o'yinchoqlarni egallash bilan bog'liq bu chegaralar kesishganda paydo bo'ladi, ya'ni bir nechta bolalar boshqa bolalarning o'yinchoqlarini olish orqali o'z chegaralarini kengaytirishga harakat qiladi. Buni 2-4 va 7 yoshli uchta o'g'il bolani uzoq muddatli kuzatish natijalari tasdiqlaydi. Agressiv xulq-atvor bilan bog'liq eng ko'p nizolar kichik katta va o'rta bola o'rtasida, kichiklar va katta yoshlilar o'rtasida esa qarama-qarshilik minimal bo'lganligi kuzatildi. Nizolar faqat ba'zi o'yinchoqlarga egalik qilish uchun paydo bo'lganiga e'tibor qaratildi. Ajablanarlisi shundaki, o'yinchoqlar borligida ular o'rtasida hech qanday ziddiyat yo'q edi. F.F.Rasulova o'z tadqiqotida kichik, o'rta, katta o'smirlarga xos agressiv mayllarning tabaqalashtirilgan ichki evolyutsiyasihamda agressiya shakllari o'rtasidagi bog'lijni jinsga ko'ra tafovutlanishining xulq-atvor va ishtimoiy munosabatlarini shartlovchi psixologik omillarini, ota-onalarning bola munosabatlarida qabul qilish va kooperatsiya tarbiya usubi agressiyaning pasayishini ta'minlovchi psixologik omillar xosdir.

Agressivlik turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi: biologik, ijtimoiy, emotsiyal va o'rganilgan xatti-harakat sifatida qaraladi. Bolalarda agressivlik odatda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Jismoniy agressiya – urish, turtish, narsalarni sindirish;

Og'zaki agressiya – haqorat, baqirish, tahdid qilish;

Passiv agressiya – norozilik, mas'uliyatdan qochish, ataylab e'tiborni tortish.

Har bir shakl bolaning yoshi, tarbiyasi, oilaviy va ijtimoiy muhiti bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi.

Agressivlikning sabablari:

Bolalarda agressiv xatti-harakatlar quyidagi asosiy omillar ta'sirida rivojlanadi:

1. Oilaviy muhit – ota-onalarning doimiy janjali, e'tiborsizlik, jismoniy jazolar;

2. Ijtimoiy omillar – ko‘cha, bog‘cha, mактабдаги zo‘ravonlik, do‘stlarning bosimi;
3. Psixologik omillar – emotсional beqарорлик, stress, qo‘rquv yoki o‘zini ifoda etishдаги qiyinchiliklar;
4. Media ta’siri – zo‘ravonlik aks etган multfilm, o‘yin va filmlarning ta’siri.

Agressivlikning oqibatlari:

Davomli agressivlik bolaning:

o‘qishga bo‘lgan munosabatini;

ijtimoiy moslashuvini;

tengdoshlar bilan munosabatlarini;

o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosini pasaytiradi.

Shuningdek, bunday bolalar katta hayotda jinoyatkorlik, depressiya, alohidalik kabi muammolarga duch kelishlari mumkin.

Agressivlikni oldini olish va tuzatish choralari:

Bola agressivligini kamaytirishda quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Ijobiy tarbiya – bolaga mehr ko‘rsatish, uning his-tuyg‘ularini tushunish;

Psixologik suhbatlar va terapiya – bolaning ichki dunyosini o‘rganish va tahlil qilish;

Muqobil faoliyatga yo‘naltirish – sport, san’at, ijodiy mashg‘ulotlarga jalb qilish;

Ota-onalarni psixologik bilimlar bilan quollantirish – oilaviy tarbiyada sog‘lom **yondashuvni shakllantirish**.

Xulosa

Bolalarda agressivlik – bu beparvolik bilan qarash mumkin bo‘lmagan psixologik muammo. Uni erta aniqlash, sabablari va shakllarini to‘g‘ri tushunish, ijtimoiy-psixologik yondashuvlar orqali bartaraf etish bola sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘ayishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu borada ota-onalar, pedagoglar va psixologlar o‘zaro hamkorlikda ishlashi kerak. G‘azablanish, qo‘rqish va shu kabi boshqa emotsiyalar insonni o‘rab turgan sharoitga moslashish vazifasini bajaradi. G‘azablanish odamlarda ham hayvonlar kabi to‘sqliarni yo‘qotishga, maqsadiga erishishiga, o‘zini himoya qilishiga

yordam beradi. Shuning uchun har qanday agressiyani ko'rsatish qonun buzarlik hisoblanmaydi. Bolalar hayotida agressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi. Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, N. (2018). Bola psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Karimova, Z. (2020). Bolalarda agressivlikning psixologik xususiyatlari. Toshkent: O'zR FA Psixologiya instituti nashriyoti.
3. Erkaboyeva, D. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanish muammolari. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Bandura, A. (1973). Aggression: A Social Learning Analysis. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
5. Фурманов.И.А. “Детская агрессивность: Пиходиагностика и коррекция”
6. Невенчанный. В.С. “Понятие агрессивного поведения в современной психологии”, Наука и современность.
7. Крейхи Б. Социальная психология агрессии.
8. <https://scienceweb.uz/publication/16645>
- 9.<https://muhaz.org/osmirlarda-agressivlik-va-tajovuzkorlik-xarakatlariningpsixol.html>